

Kasb-hunar sohibi aslo xor bo'lmas

Institutimizda xotin-qizlar masalasi doimo eng dolzarb hisoblanib kelingan va buning samarasi o'laroq bir qator ishlar qilinmoqda. Bunday ishlarning mantiqiy davomi sifatida Ushbu muhim vazifani ijro etish bugungi kun talabidir. 31 - mart kuni 2-Talabalar turar joyida Institut Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor R.Choriyev, Xotin - qizlar masalalari bo'yicha maslahat kengashi raisi Z.Ismailova, TTJ direktori I.Buxorov, Talabalar turar joylari kengashi raisi J.Saidahmedov, Pedagog-tarbiyachi D.Shukurlayeva hamda "Gidromellioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash" fakulteti talabasi Sobirjonova Dilshodalar boshchiligidagi 2 - TTJda 5 ta muhim tashabbus ijrosi yuzasidan bir qator amaliy ishlar bajarilmoqda.



Xususan, 5 - tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, ularni kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha tashkil etilgan "Pazandachilik" to'garagining ochlish marosimi bo'lib o'tdi. 2-Talabalar turar joyida faoliyat ko'rsatayotgan "Pazandachilik" to'garagi rahbari Gidromellioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash fakulteti Sobirjonova Dilshoda va uning shogirtlari, "Pazandachilik" to'garagi ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan mahsulotlar ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.



Ibratli qizlar to'garak faoliyati bilan Institutimiz barcha Fakultet dekanlari va o'rribbosarlari xotin-qizlar kengashi a'zolari kelib tanishdi. Tadbir oxirida yig'ilganlarni hammasiga pazandachilik to'garagi ishtirokchilari 3-4-Talabalar turar joyi Pedagog-tarbiyachilar Aziza Xaitova, Isaquluva Nargiza, fakultet dekanlari va o'rribbosarlari, Talabalar turar joyi talabalariga mehmonlar hamda yig'ilganlarga o'z qo'llari bilan tayyorlangan turli xil shirinliklar ulashishdi.



To'garak a'zolarining tayyorlangan ishlarini yuqori baholashdi va ularga omad tilashdi. Biz esa qizlarimizga omad tilab, talaba qizlarimizni faoliyatini kuzatishda davom etamiz. Bizdan aslo uzoqlashmang.

Talabalar turar joylari kengashi raisi Saidahmedov Jahongir axboroti

TIQXMMI matbuot xizmati